

GRAMMATIK TUSHUNCHALARNI O‘ZLASHTIRISHNING LINGVOPSIXOLOGIK ASOSLARI

TAFU Pedagogika kafedrası
o‘qituvchisi Masharipova N.R.

***Abstract:** In this article, creative organization of classes, effective use of new information technologies, multimedia, preparation of new concepts and long-remembering activities for consistent learning of the subject, knowledge of science, knowledge of terms and concepts related to this science, understanding, the issues of being able to use them correctly are highlighted.*

***Key words:** Concept, grammatical term, grammatical concept, grammatical knowledge, linguistic psychology, educational material and task.*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada darslarni ijodiy tashkil etish, yangi axborot texnologiyalaridan, multimedialardan unumli foydalanish, mavzuni izchil o‘rganish uchun yangi tushuncha va bilimlarni xotirada uzoq saqlovchi mashg‘ulotlarni tayyorlashda katta mahorat talab etilishi, fanni bilish shu fanga oid termin va tushunchalarni bilish, tushunish, ularni to‘g‘ri qo‘llay olish masalalari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Tushuncha, grammatik termin, grammatik tushuncha, grammatik bilim, lingvopsixologiya, o‘quv materialli va topshiriq.*

Ona tili darslarida o‘quvchilarning grammatik termin va ular bilan bog‘liq tushunchalarni o‘zlashtirishlarini yuqori samara bilan ta‘minlashda muayyan psixologik asoslarga amal qilish muvaffaqiyat garovi ekanligi shubhasizdir. Bu narsa bugungi kun nuqtayi nazaridan ham metodik izlanishlarning jahon andozalariga mos kelib, olib borayotgan tadqiqotimizning muhim jihati hisoblanadi. Biz bu o‘rinda maxsus psixologik izlanishni da‘vo qilmagan holda, til o‘qitish ruhshunosligida tushunchalarni o‘zlashtirish mexanizmlari haqidagi ma‘lum darajada o‘z isbotini topgan ma‘lumotlar, qarashlar, qoida va

qonuniyatlarni belgilab chiqish va chiqarilgan xulosalardan nazariy asoslar sifatida foydalanishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Bu ma'lumotlarsiz metodik masalalarni hal etish uchun to'g'ri yo'l topish qiyinligi aniqdir. Shuningdek, bu ma'lumotlar o'quvchilarning nima uchun termin va unga bog'liq grammatik tushunchalarni o'zaro qorishtirishlari, yanglishishlarining tub sabablarini ochib berishiga ishonchimiz komil. Bir qator ruhshunos olimlar terminlarni o'zlashtirish jarayoni haqida so'z yuritganlar. A.A.Leontev, A.N.Leontev, A.A.Smirnov, N.I.Jinkin, A.N.Jdan, A.V.Smirnov, S.F.Juykov, D.N.Bogoyavlenskiy, N.A.Menchinskaya, M.G.Davletshin, M.Vohidov, E.G'oziyevlarning asarlarida termin va u anglatgan tushunchani idrok etish muammolari yoritilgan.

Ta'kidlash joizki, termin va tushuncha bir-biridan farqli hodisalardir. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da termin va tushunchaga shunday ta'rif berilgan: "Termin. Fan, texnika, kasb-hunarining biror xohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi; termin".¹ Ma'lum bo'ladiki, grammatik termin tushunchaning ifodasi bo'lib, ayni paytda u til hodisasiga qo'yilgan nomdir. Til hodisasitushuncha reallashib, termin bilan yuritiladi. Atama asosida aytiladigan gaplar til hodisasiga taalluqli bo'ladi.

"Tushuncha. 1. Predmet va hodisalarning mantiqan ajratilgan muhim belgilarini umumlashtirib, birlashtirib aks ettiruvchi umumiy tasavvur".² Demak, grammatik tushuncha – til hodisasining muhim belgilari haqidagi tasavvur. Grammatik tushuncha terminga berilgan ta'rifda (lug'atda-izoh) o'z ifodasini topadi. Grammatik termin va tushuncha aks etgan ta'rif (izoh) til hodisasining xossalari, uni boshqa til hodisalaridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilar, xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

A.V.Tekuchev grammatik tushunchalar haqidagi o'z tavsiyalarini psixologiya ma'lumotlariga asoslanib yoritadi. U bunday deydi: "Psixologiya aqliy faoliyat bilan bog'liq mexanizmlarni ochib berib, ularning grammatik tushunchalarni ongli

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomli. Z. Ma'rufov tahriri ostida. II. S. H. - M. Rus tili, 1981. - 165

² O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomli. Z. Ma'rufov tahriri ostida. II. S. H. - M. Rus tili, 1981. - 240

qabul qilish, ongli tafakkurning o'рни va olgan bilimlarini analiz va sintez qilish operatsiyalarini kuzatadi".³

Tushuncha terminning ma'no-mazmuni ekan, o'zlashtirish termini eslab qolishga qaratilgan chora-tadbirlardangina iborat bo'lib qolmasligi, aksincha, butun diqqat-e'tibor ma'no-mazmunni chuqur anglab yetishga yo'naltirilishi kerak degan xulosa chiqarishimiz to'g'ri bo'ladi. Ona tili darsliklarida grammatik tushuncha terminning ta'rifi, belgi va xususiyatlari aks etgan qoidalar orqali tushuntiriladi. Bundan anglashilinadiki, tushunchani o'rganish ta'rif va qoidalardan bayon etilgan belgi va xususiyatlarni anglab yetish mazmunida bo'lishi zarur. Grammatik vositalar va ularning ma'nolarini bolalarga tushuntirishning asosiy prinsipi o'rganilayotgan qonuniyatni nutq tarkibida tahlil qilishdir. Grammatik tushuncha , - deb ta'kidlaydi D.N.Bogoyavlenskiy, - shakl va mazmun o'rtasidagi mavjud aloqadorlikni anglash orqali o'zlashtiriladi."⁴ Grammatik bilim nutqda obyektiv mavjud bo'lgan qonuniyatlarning yozma nutq vositasida faollashtirilgan, umumlashgan ifodasidir, grammatik tushuncha esa nutqimizda obyektiv mavjud bo'lgan qonuniyatlarning ongli ko'rinishidir. A.A.Smirnovning ta'kidlashicha, tushuncha borliqdagi narsa va hodisalarning umumiy hamda muhim xossalarning aks etishidir. N.A.Menchinskaya tushunchaning muhim xususiyatini umumlashganlik deb hisoblaydi. A.A.Smirnov ham, N.A.Menchinskaya ham tushunchani egallash belgilarni o'zlashtirish va ushbu belgilar orasidagi bog'lanishni aniqlash bilan tugamaydi; uni egallash ushbu tushunchani qo'llashni ham ko'zda tutadi,"⁵ deb hisoblaydilar. Ruhshunoslar V.V.Davidov va D.B.Elkoninglar, - deb yozadi Y.K.Babanskiy, - ilmiy tushunchalarni shakllantirishda o'quv materialini mazmunining shunday mantiqiy tuzilishini izlaydilar, bunda o'quvchilar, eng avvalo, ana shunday tushunchalar butun majmuining yaxlit strukturasi aniqlovchi genetik o'xshashlikdagi umumiy aloqani aniqlaydilar".⁶ T.V.Gabay bilimlar subyektning o'zida bo'lishi yoki u

³ Текучёв А.В. Грамматический разбор в школе. – М.: Изд-во АПН, 1963. 60-6

⁴ Bogoyavlenskiy D.N. Psixologiya usroyeniya orfografiya. N 4.-M.:Prosvesheniye,1966.-S.215

⁵ Жуйков С.Ф. Психологические основы повышения эффективности обучения младших школьников родному языку.-М.Педогогика. 1979.16

⁶ Babanskiy Y.K Hozirgi zamon umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qitish metodlari. T.:O'qituvchi,1990.166-230

axborotning tashqi tashuvchilariga saqlanishi mumkinligiga e'tiborni qaratadi. Uning xulosalariga ko'ra, subyekt faoliyatni bajarishning turli usullarni va u yoki bu usul orientrlarning qaysi aniq bir to'plamiga kirishini ham bilishi kerak. Madomiki, biror axborot subyekt tomonidan qo'llanar ekan, bunday axborot faoliyatning mo'ljal olish asosini tashkil etadi. Basharti, faoliyat subyekt tomonidan mustaqil bajarilsa, faoliyatning mo'ljal olish asosi bo'lmish axborot, avvalo, subyektning uzoq muddatli xotirasida o'z moddiy tashuvchisiga ega bo'ladi, bunday axborot shu yerdan tegishli timsollarni dolzarblashtirish va faoliyatni qurush uchun operativ xotiraga kelib tushadi. Agar faoliyat uning algoritmiga mos tashqi tashuvchilarga tayanib bajarilsa, u holda faoliyatning mo'ljal olish asosi bo'lmish axborot subyektning operativ xotirasida mavjud bo'ladi: u bevosita tashqi moddiy tashuvchilardan o'qish yo'li bilan olinadi.⁷

Ona tili darslarida axborotning moddiy tashuvchilari bular darsliklar, izohli lug'atlar, grammatik ma'lumotnomalar, o'zbek tilshunosligiga doir ilmiy va ommobop risolalardir. O'quvchining uzoq muddatli xotirasida bilim, masalan, -da yuklamasining imlosi haqidagi qoida bo'lmasa, u hamma vaqt shu qoida mavjud bo'lgan tashqi tashuvchilarga murojaat etib turadi. Grammatizmdan qochilib, maboda bolalarga qoidalar o'rgatilmagan ekan, ularning qo'llarida shu qoida mavjud bo'lgan manbalar bo'lishi shart. Bunday sharoitda ona tili ta'limining asosiy vazifasi o'quvchilarni zarur qoidalarni kitoblardan tez topa bilishga o'rgatish, tegishli malaka hosil qilishdan iborat bo'ladi. Lekin nutq uchun o'ta zarur qoidalarni o'quvchilarning uzoq muddatli xotiralariga ko'chirish ona tili o'qitishning maqsadlaridan biri sanaladi.

Bilimlarni o'zlashtirish borasida I.Y.Lerner olib borgan tadqiqotlar ham muhim ma'lumotlar beradi. Uning ta'kidlashicha, tashqi ifodalanish va hissiy qabul qilishga yo'l beradigan faktlar idrok qilish, anglash va esda olib qolish jarayonida o'zlashadi. Keyingisi, ya'ni esda olib qolish bo'lmasa, biror darajadagi o'zlashtirish ham sodir bo'lmaydi. O'quvchining xotirada olib qolinadigan mazmun bilan ko'rsatadigan faoliyati qanchalik jadal va har tomonlama bo'lsa,

⁷ Габай Т.В Учебная деятельность и ее средства.-М. Изд-во МУ.1988.18-19

yodda qoldirish shunchalik yaxshi va mustahkam bo‘ladi.⁸ Bizningcha ham, o‘quvchi imlo va tinish belgilariga, grammatik vositaning qo‘llanishiga doir qoidalaridan tez foydalanib o‘z xatolarini jadal tuzatishga o‘rgansa, bunday amaliy faoliyat orqali ana shu qoidalar uzoq muddatli xotirada o‘rnatib qoladi.

Yangi ona tili darsliklarida til hodisalarini berilgan matndan qidirish va mustaqil holda tahlil orqali anglash vaziyatiga soladi. I.Y.Lernerning fikricha, qidirish jarayoni bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘ladigan o‘zlashtirish topilganlarni yaxshiroq esda olib qolishga olib keladi. Turli xil vaziyatlarda bilimlarni qo‘llash ularni yod olishga qaraganda xotirada yaxshiroq mustahkamlaydi (garchi ayrim holatlarda yod olish ham zarur). Bilim tartibga solingan, ya‘ni boshqa bilimlar bilan qonuniyatlilik asosida bog‘langan bo‘lsa, muayyan bilimlar tizimining bir qismi hisoblansa, shu paytdagina to‘laqonli o‘zlashtiriladi.⁹ Metodist olimi M.Omilxonova o‘zining “Maktab ona tili sintaksisini o‘rganish” degan qo‘llanmasida ruhshunoslarning ma‘lumotlariga asoslangan holda grammatik bilim, grammatik tushuncha va grammatik terminlarni o‘zaro qiyoslab chiqadi va o‘qituvchilarda ular o‘rtasidagi farqlar haqida yaqqol tasavvur paydo qilish uchun quyidagi jadvalni keltiradi:¹⁰

Grammatik bilim	Grammatik termin	Grammatik tushuncha
1. Til hodisalarining yozma nutq vositasida formallashtirilgan ifodasi.	1. Grammatik bilim chegarasini ko‘rsatish vositasi.	1. Til hodisalarining ongimizdagi in‘ikosi.
2. Ongimizda aks etgan real narsa-hodisalarning o‘zgalarga tushunarli	2. Tildagi umumiy so‘zlarning bir qismi bo‘lib, fikrlash vositasi sanaladi.	2. Tushunchaning bir ko‘rinishi bo‘lib, fikrlash formasi hisoblanadi.

⁸ Лернер И.Я. Процесс обучения и его закономерности.-М. Знание.1980.30

⁹ Лернер И.Я. Процесс обучения и его закономерности.-М. Знание.1980.30-31

¹⁰ Omilxonova M. Maktabda ona tili sintaksisini o‘rganish.-T.: O‘qituvchi,1991.159

<p>bo'lishini ta'minlaydigan vositalar (so'z, gap)ni abstraksiyalash, umumlashtirishning hukm shaklidagi natijasidir.</p> <p>3. Gap shaklida ifodalangan bo'lib, o'ziga muvofiq til faktlarining hammasiga tatbiq etiladi.</p> <p>4. Tarkiban so'z, so'z birikmasi, termin, bog'lovchi vositalardan tuziladi.</p> <p>5. Ma'lum til qonuniyatiga oid faktlarning hammasi uchun umumiy bo'lib, grammatik tushunchani shakllantiradi.</p> <p>6. Til qonuniyatlarining Yozma nutq orqali</p>	<p>3. Grammatik bilimlar tarkibida ishlatiladi, tilde zuxur etadi.</p> <p>4. Tarkiban so'z, so'z birikmasi, bog'in va tovushlardan tuziladi.</p> <p>5. Grammatik termin nutqni, binobarin, tafakkurni o'stiradi.</p> <p>6. Grammatik tushunchaning termini bo'lib, uni aytamiz, eshitamiz, o'qiyamiz.</p>	<p>3. Grammatik bilimlarning hosilasi sifatida inson ongida hosil bo'ladi.</p> <p>4. Til qonuniyatlariga oid faktlarni abstraksiyalash, umumlashtirish mahsulidir.</p> <p>5. Grammatik fikrlashni taraqqiy ettiradi.</p> <p>6. Grammatik tushunchani anglaymiz.</p>
--	---	---

<p>konkretlashtirilgan modeli bo‘lib, uni o‘qiymiz, yozamiz, eshitamiz.</p>		
---	--	--

Grammatik tushunchani o‘zlashtirishning psixologik xususiyatlarini quyidagicha ochib berishga harakat qilgan: Til qonuniyatlari, grammatik tushunchalarni o‘zlashtirishda “...ularning umumlashtiruvchilik xususiyati nazarda tutiladi, bunda formalar asosiy o‘lchov hisoblanadi”.¹¹ Chunonchi jo‘nalish kelishigining asosiy funksiyalaridan biri gap tarkibidagi so‘zlarning o‘zaro munosabatini ifodalashdir. Tabiat, jamiyatdagi negativ hodisalar o‘rtasidagi makon (uyga kirdi), zamon (kuzga qoldirildi), sabab-natija (o‘qiganimga xursandman), maqsad (ukamga olmoqchiman) kabi turli bog‘lanishlarning ongimizdagi in’ikosini yuzaga chiqarishda bu kelishik qo‘shimchasi –ga vosita bo‘ladi. Yana shuni ham ta’kidlash kerakki, grammatik vositaga grammatik tushunchani bog‘lab qo‘yish ba’zan mumkin emasligiga M.Omilxonova e’tibor qaratgan. Yuqorida keltirilgan qo‘shimchalarning bir nechta ma’nosi borligini aytgan bo‘lsak, -n,-in,-l,-il qo‘shimchalari ham majhul, ham o‘zlik nisbatini ifodalaydi. Demak, ko‘rishimiz mumkinki, bu o‘rinda grammatik vositaga grammatik tushunchani bog‘lab o‘rgatishda o‘z qiyinchiliklari bor.

O‘quv materiallarini o‘rganish jarayonida turli aqliy operatsiyalarni bajarish natijasida, birinchidan, o‘quvchi bilimi taraqqiy etadi, ikkinchidan, uning analitik-sintetik faoliyati shakllana boradi. Shu sababli ruhshunoslarimiz o‘quv materialining mazmuniga o‘quvchining “psixik faoliyatini taraqqiy ettirishning mazmuni”¹² deb ham qaraydilar. Grammatik bilimlarni o‘zlashtirish natijasida o‘quvchilarda grammatik tushuncha hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan grammatik tushuncha bundan keyin o‘rganiladigan grammatik bilimlarni o‘zlashtirish uchun o‘zlashtirilgan grammatik bilim yangi tushunchalar hosil qilish uchun asos bo‘ladi.

¹¹ Rustamov H.R. Sintaksis va punktuatsiyani o‘qitish metodikasi. Toshkent -1960.19

¹² Razbayeva E.M va boshqalar. Nutq o‘stirish metodikasi.-Toshkent.O‘qituvchi,1978.12

“Grammatik tushuncha – harakatdagi bilim, o‘zlashtirilgandagi bilim – grammatik tushuncha”.¹³

Pedagogikada qaror topgan ko‘p tomonlama nazariy, amaliy, tarixiy hamda metodologik jihatlardan in‘ikosini topgan tushuncha terminga aylanadi. Endigina paydo bo‘lgan va yetarlicha chuqur asoslanmagan, to‘laligicha ochib berilmagan va hozircha keng tarqalmagan yangi tushunchalar tushunchaligicha qolib ketadi. Ruhshunos olim S.L.Rubinshteyn ham ona tili ta‘limida ongli tafakkur mahsuli (tushuncha, hukm va xulosa chiqarish)ning tarkib topishi va rivojlanishi to‘g‘risida umumlashtirishning uch turi mavjudligini ta‘kidlaydi: empirik, nazariy va deduktiv umumlashtirishlar. Bu umumlashtirishlar yordamida ish tutilsa, S.L.Rubenshteyn mulohazasiga ko‘ra topshiriq yo asta-sekin (empirik), yoki birdaniga (nazariy) hal qilinishi mumkin. Ona tili darslarida o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini abstraksiyalashtirishda, umumlashtirishda, hamda xulosa chiqara olishida fiziologik jihatdan qo‘zg‘otgich – tilning aniq grammatik materiali sanalsa, qo‘zg‘otish vositasi – o‘quv materiali mazmuniga muvofiq tanlangan o‘qitish metodi sanaladi. Shunday qilib, shakl va mazmun o‘rtasidagi mutanosiblikni o‘rganish, kuzatish, turli grammatik shakllarning ma‘nosini matnlarda ochib o‘rganish, o‘quv materialining asosiy belgilariga rioya qilish, grammatik bilimlarga oid materiallarni izchil kursda tahlil qilish, turli usullarda takrorlash natijasida o‘quvchilar grammatik tushunchalarni puxta o‘zlashtiradilar.

Darslarda o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati qancha taraqqiy ettirilsa, ular o‘z oldiga qo‘yilgan muammoli topshiriqlarni shuncha qiynalmay bajara oladilar. O‘quvchi topshiriqlarni ishlash sir-asrorlarini o‘rgana borgan sari unda ijodiy fikr yuritish faoliyati shakllana boradi. Ijodiy fikr yuritish o‘quvchilarda evristik layoqatni o‘stiradi. Darslarni ijodiy tashkil etish, yangi axborot texnologiyalaridan, multimedialardan unumli foydalanish, mavzuni izchil o‘rganish uchun yangi tushuncha va bilimlarni xotirada uzoq saqlovchi mashg‘ulotlarni tayyorlash o‘quvchilardan zo‘r mahorat talab etadi.

¹³ Roziqov O.O‘zbek tili dars tiplari.T.:O‘qituvchi,1976.154-165

Yangi mavzuni o'zlashtirishda o'quvchi yangi fikrni signallar orqali qabul qiladi. Signallar uch turkumga ajratiladi: 1) signal-indekslar – tabiat hodisalaridan olingan signallar; 2) signal-timsollar – fototasvirni ko'rib, tanish kishini esga tushirish; 3) aloqa signallari yoki shartli belgilar – harflar, raqamlar, formula, terminlar.¹⁴ So'z yoki termin signal vazifasini o'tab, o'tilgan darslardagi grammatik terminlarni aytilishi bilan unga oid tushunchani xotiraga keltira olish mavzuni tahlil va sintez qila olishiga ko'mak beradi. Fanni bilish shu fanga oid termin va tushunchalarni bilish, tushunish, ularni to'g'ri qo'llay olish demakdir. Shunday ekan, o'quvchining bilimiga o'z malaka va ko'nikmalarida grammatik tushunchani anglay olishi va uni nutqda to'g'ri qo'llay olishiga qarab baho beriladi. Ona tili darslarida maktab o'quvchilarining mantiqiy fikrlash malakalari muntazam taraqqiy ettirib boriladi, oqibatda, ular o'z fikrlash faoliyatlarini takomillashtirib, mantiqiy amallarni ham bajaradigan bo'ladilar. Mustaqil fikrlash o'quvchilarning grammatik hodisalarini o'z shaxshiy kuzatishlari, shu kuzatishlar asosida ularni tahlil va sintez qilishlari faktlarni taqqoslashlari, solishtirishlari va ma'lum xulosaga kela bilishlarida namoyon bo'ladi. Bunday fikrlash ongli kechadi. O'quvchilarni ongli fikrlashga o'rgatish muammolari yuzasidan ilmiy-izlanishlar bir qator olib borilgan. O'quvchilarning ongli fikrlash malakalarini takomillashtirish imkoniyatlari ona tili o'qitishning hamma bosqichlarida, har bir darsda kuzatilishi haqida metodist olim A.G'ulomov ta'kidlab o'tgan:

- a) bilib olish kerak bo'lgan har bir grammatik hodisaning eng muhim belgilari haqida xulosa chiqarilganda;
- b) til hodisalarini o'rgana borib, grammatik shakllarni toifaviy belgilariga ko'ra bir-biridan o'zaro farqlashda, guruhlashda;
- c) mashqlar bajarish orqali so'z, so'z shakli, so'z birikmasi va gaplarning o'ziga xos xususiyatlarini ajrata boshlaganda.¹⁵

O'quvchi har bir dars jarayonida grammatik tushunchaga ega bo'lar ekan, avvola, shu tushunchaning muhim belgisini ajratib olishi va uni anglashi, boshqa

¹⁴ Кондратов А. Звуки и знаки.-М.Знание.1966.111

¹⁵ G'ulomov A, Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.:Universitet,2001,221-bet

tushunchalardan farqlashi, anglagan tushunchasini berilgan topshiriqlar asosida mustahkamlab borishi hamda uning tahlilini o'rganib borishi zarur. Shundagina lingvistik bilimga ega bo'lib borishda bo'shliqlar yuzaga kelmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek tilining izohli lug'ati.Ikki tomli.Z.Ma'rufov tahriri ostida.II.S.H.-M.Rus tili,1981.-165
2. Текучѳв А.В. Грамматический разбо в школе. – М.: Изд-во АПН,1963.60-б
3. Bogoyavlenskiy D.N. Psixologiya usroyeniya orfografiya. N 4.-M.:Prosvesheniye,1966.-S.215
4. Жуйков С.Ф. Психологические основы повышения эффективности обучения младших школьников родному языку.-М.Педагогика. 1979.16
5. Babanskiy Y.K Hozirgi zamon umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qitish metodlari. T.:O'qituvchi,1990.166-230
6. Габай Т.В Учебная деятельность и ее средства.-М. Изд-во МУ.1988.18-19
7. Лернер И.Я. Процесс обучения и его закономерности.-М. Знание.1980.30-31
8. Omilxonova M. Maktabda ona tili sintaksisini o'rganish.-T.: O'qituvchi,1991.159
9. Rustamov H.R. Sintaksis va punktuatsiyani o'qitish metodikasi. Toshkent - 1960.19
- 10.Razbayeva E.M va boshqalar.Nutq o'stirish metodikasi.-Toshkent.O'qituvchi,1978.12
- 11.Roziqov O.O'zbek tili dars tiplari.T.:O'qituvchi,1976.154-165
- 12.Кондратов А. Звуки и знаки.-М.Знание.1966.111
- 13.G'ulomov A, Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.:Universitet,2001,221-bet

14. Klaraxon Mavlonova, Nilufar Hakimova. Ona tili darslarida o‘qish savodxonligini egallash imkoniyatlari. O‘zbek tilshunosligini rivojlantirishning dolzarb muammolari. Res.ilm.amal.konf.mater.-Toshkent.: O‘zkitobsavdo nashriyoti, 2020.
15. Azimova I. O‘zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: F.f.n.dis. monografiya. –Toshken.t: 2008. – 114 b.